

*DTPI Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*Abduraimova Mohichehra Jo'ra qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mustaqillik davrida diniy qadriyatlarning tiklanishi, diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi ,diniy tashkilotlardagi o'zgarishlar ,istiqbol yillarida dinga qay darajada e'tibor berilganligi haqidagi fikr va mulohazalar keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Din, ishonch , diniy qadriyat ,bag'rikenglik, vijdon erkinligi, e'tiqod , komil inson, ma'naviy-axloqiy.

Din so'zi arab tilidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi “ishonch,e'tiqod”dir.

Din insonni qurshab olgan atrof muhitdan bo'lган , uni va koinotdagi barcha narsalarni yaratgan,ayni zamonda insonlarga to'g'ri ,haqiqiy ,odil hayot yo'lini ko'rsatadigan maslak ,qarash ,talimotdir. Din arabcha so'z ekanligi barchaga ma'lum .Dinning ma'zmun mohiyati juda ko'p .Din so'zi juda keng ma'noda ishlatiladi .O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyayev aytgandek ''Biz islomiy qadriyatlar va musulmon madaniyatini muhofaza qilishimiz lozim.Islom dini tinchlikka ,ma'rifatga va ma'naviy boylikka da'vat etadigan din.Buyuk ajdodlarimiz Islom dunyosining mutafakkirlarining yutuqlari ,ularning jahon tamadduni taraqqiyotiga qo'shgan mislsiz hissalarini o'rganish va ommalashtirish o'ta muhim ahamiyatga ega.O'zbekiston islomiy madaniyat noyob merosiga ega va Imom al-Buxoriy,Imom at-Termiziy, Abu Rayxon Beruniy, al-Xorazmiy,Imom al-Moturidiy va boshqa buyuk arboblarning nomlari nafaqat musulmon mamlakatlari,balki butun dunyoga yaxshi tanish''.

Mustaqillik yillarida dinning huquqiy davlat,fuqarolik jamiyatida tutadegan o'rni va mavqeい aniq belgilanib ,bu sohada mustahkam qonunchilik poydevori yaratildi.Jumladan ,O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ''diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida

tengdirlar'', degan demokratik tamoyil mustahkamlab qoyilgan.Fuqarolar millati,irqi va dinidan qati'y nazar ,teng huquqli ekanligi ,urf- odatlari,milliy an'analari hurmat qilinishi kafolatlangan.Ushbu konstitutsiyaviy qoida 1998-yil 1-may kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi ''Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida''gi qonunning 5-moddasida ham o'z ifodasini topgan.Bugun Ozbekiston diniy bag'rikenglik va murosa borasida nafaqat MDH davlatlari ,balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda.Bu haqida Moskva va Butun rus patriarxi Aleksiy II,Xillari Clinton va Madlen Olbrayt,Iordaniya shaxzodasi Hasan bin Tallol kabi dunnyo miiqyosida katta obro' va nufuzga ega insonlar yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tdilar.Albatta ,xalqimizga xos bu hislat bir zumda paydo bo'lgan emas,balki uzoq tarixiy asoslariiga ega.O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk yillarda mamlakatda jome' masjidlar soni Keskin ko'paygan lekin 1999 yilgi Toshkent portlashlaridan keyin ularning soni kamayib ketdi.Shunga qaramasdan hukumat mulozimlari O'zbekistonda diniy erkinliklar taminlangan ,deb aytishadi.Sovet Ittifoqi vaqtida ham O'zbekistonda Markaziy Osiyoning diniy savod chiqarish markazi bo'lib kelgan.Tarixga nazar soladigan bo'lsak ,yurtimizda hamisha ijtimoiy hamkorlik ruhi va bag'rikenglikni targ'ib etuvchi qadriyatlar ustuvor bo'lib kelganidan dalolat beradi. Mustaqillik tufayli o'zligimizni anglash ,ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash jarayoni kechayotgan hozirgi paytda umuman dinga va ayniqsa ota-bobolarimiz dini bo'lib kelgan islom diniga munosabat tubdan o'zgardi. Bu sohadagi yutuqlar va o'zgarishlarni sanab o'tishga hojat yo'q albatta.Bag'rikenglik tushunchasi turli e'tiqoddagi din vakillarining bir diyorda birgalikda hayot kechirishiga,millati va dinidan qa'tiy nazar ularning chin insoniy fazilatlarga xos muomalada bo'lishi tushuniladi .Bu esa o'z navbatida ,yurt tinchligi va taraqqiyotiga ,umuminsoniy madaniyat va ma'naviyat rivojiga xizmat qilib kelmoqda.Diniy bag'rikenglik turli din vakillari e'tiqodidagi mavjud aqidaviy farqlardan qatiy nazar ularning yonma -yon,o'zaro tinch totuv yashashini anglatadi .Har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkin bolgan holda bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini e'tirof etmoq lozim.Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan oqilona ,diniy bagrikenglik siyosati olib borilmoqda .Respublikada islom dini bilan bir qatorda,16 diniy konfessiyaga

mansub tashkilotlar emin-erkin faoliyat ko'rsatmoqda.Fuqarolarning millati,irqi,dinidan qat'iy nazar barcha uchun teng huquqlar qonun orqali kafolatlangan.Buni diyorimizga tashrif buyurayotgan turli millat vakillari o'z ko'zi bilan ko'rib bunga amin bo'lmoqda. E'tiqod erkinligi,diniy bag'rikenglikning ijtimoiy -siyosiy jihatlari diniy tashkilotlar va davlat munosabatlarida doimo dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan.Bu beziz emas ,albatta.Din mamlakat aholisini ruhiy chiniqtirish hamda yuksak axloq ,Vatan va xalq manfaati yo'lida fidokorlik ,poklik ,o'z millatiga sodiqlik kabi qadriyatlarni kundalik hayotga tatbiq etish orqali turmush tarzini o'zgartirish va yurt farovonligini oshirishga xizmat qiladi.U insondagi qimmatli,eng ezgu fazilat va xislatlarni yuzaga chiqarishga qodir.Islom dini ham ilk davridayoq bag'rikenglik dini sifatida namoyon bo'lib ,u insonlarga muruvvatli ,ochiq yuzli ,bo'lishlik, boshqa din vakillari bilan chiroylı muomalada bo'lishni talab qiladi.Din ko'p qirrali va murakkab tushunchadir.Dunyoda dini etiqodi bo'limgan xalq yo'qdir.Insonlarning ehtiyoji hosilasi sifatida maydonga kelgan dinning jamiyatda falsafiy-nazariy jihatdan bajaradigan vazifasi nihoyatda muhim.U insonlarni yashashdan maqsadi nima ekanligini ,qanday yashash lozimligini, inson hayotining mazmuni nima ekanligini , insof,adolatni ,tinchlikni , dorul-fono masalasida tayyorgalik ko'rish kerakligini ,eng muhimi,insonlar halol va pok mehnati bilan kun ko'rishi ,ilm -ma'rifatga ega ,birodar bo'lishi lozimligini targ'ib qiladi. Din insonning ishonchli hamrohi ,odamzot hayotining bir qismi bo'lib kelgan Unga turli davlatlarda turlicha munosabatda bo'lingan.Dinni jamiyatning hukmron kuchlari davlat siyosati darajasiga ko'targan yoki din hamda dindorlarni ayovsiz ta'qib ostiga olgan hollar tarixda ko'p uchraydi .Yaqin o'tmishda -sho'rolar davrida dinni kamsitish va unga qarshi kurash siyosati olib borildi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach,din madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi teng huquqli qadriyat sifatida tan olindi va dinga to'la erkinlik berildi.

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston aholisining asosiy qismi Islom diniga ,yevropalik aholi xristianlikning pravoslaviye mazhabiga e'tiqod qiladi.Ular bilan bir qatorda katolik, protestant ,boshqa mazhab (jami 15 dan ortiq

konfessiya )vakillari yashaydi .Ular vatan mustaqilligini mustahkamlash siyosiy-ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritmoqdalar. O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib din davlatdan ajratilgan. Dunyoviy ilm nuqtai nazaridan din kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'lган ijtimoiy ong shakllaridan biri.Bu dunyoqarash jamiyatning ma'lum tarixiy davr va sharoitlaridagi talablari ,ehtiyojlari asosida shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

- 1.Najmiddinov J.Karimov J.,Turdiyeva D.,Dinshunoslik .Qomusiy lug'at .Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti 2017-480 bet. 2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi .T.:2001-yil.
- 3.Karimov I.A "Alloh qalbimizda, yuragimizda ".T.
- 4.Azizov A. Islom va hozirgi zamon.T.,1192-yil.
- 5.<https://iht.uz> .